# O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

## SUBHONOVA ANORA AKMAL QIZI

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILI OGʻZAKI NUTQINI SHAXSGA YOʻNALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERAT

# Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

# Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

## Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Subhonova Anora Akmal qizi Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish	3
Субхонова Анора Акмал кизи Формирование устной речи на английском языке у детей дошкольного возраста на основе личностно-ориентированного подхода	29
Subkhonova Anora Akmal qizi Formation Of English Oral Speech In Preschool Children Based On A Person-Oriented Approach	58
E'lon qilingan ishlar roʻyxati Список опубликованных работ List of published works	62

# O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

## SUBHONOVA ANORA AKMAL QIZI

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILI OGʻZAKI NUTQINI SHAXSGA YOʻNALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERAT Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5141 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Iriskulov Muhamadavas Tursunovich <sup>1</sup> filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Sabirova Gulnoza Sadikovna pedagogika fanlari doktori, dotsent
	Akbarova Shaxnoza Hikmatillayevna pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Chirchiq davlat pedagogika universiteti
PhD.03/07.06.2024Ped.27.02 raqamli II boʻlib oʻtadi. Manzil: 100138, Toshkent (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-1 Dissertatsiya bilan Oʻzbekistot tanishish mumkin ( raqami bilan roʻy Kichik halqa yoʻli koʻchasi, 21-A uy. Te Dissertatsiya avtoreferati 2025-y	n davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
	<b>L.T.Axmedova</b> Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor
	A.B.Raxmonov Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, ped.f.d., dotsent
	K.Sh.Muradkasimova Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d., dotsent

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Ilmiy rahbarimiz, muhtaram f.f.n., professor Iriskulov Muhamadavas Tursunovich vafot etgan.

#### KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda chet tillarini, xususan, ingliz tilini oʻqitish va oʻzlashtirish metodikasi boʻyicha olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tili kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirish, ularni erkin muloqotga tayyorlash va bu shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni qoʻllashga alohida qaratilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida til o'rganishning erta bosqichdan boshlanishi, individual qobiliyat va ehtiyojlarni inobatga olgan holda, shaxsga yoʻnaltirilgan metodlar asosida olib borilishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantirishda oʻyinli metodlar, interfaol mashgʻulotlar, multimediaviy vositalar va kommunikativ yondashuvlar orqali bolalarning tilga boʻlgan qiziqishi kuchaytirilmoqda. Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar ingliz tilini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmaslik, balki bolalar yoshiga mos, motivasiyaga yoʻnaltirilgan, shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlamoqda.

Dunyoda olib borilgan tadqiqotlarda chet tillarini oʻqitishda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yosh xususiyatlariga mos til materiallarini tanlash, ularning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantirishda shaxsga yoʻnaltirilgan, interfaol va kommunikativ metodlardan foydalanish dolzarb masala sifatida koʻrilmoqda. Bolalarning ingliz tilida erkin muloqotga kirishish malakasini shakllantirishda individual yondashuv asosidagi oʻyinli topshiriqlar, vizual materiallar, multimediaviy vositalar, qoʻshiq va she'rlar orqali ogʻzaki ifoda qilish koʻnikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xalqaro miqyosda, xususan, Avstraliyaning Melbourne Universiteti, Finlyandiyaning Helsinki Universiteti hamda Germaniyaning Leipzig Universiteti kabi nufuzli ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'limda ingliz tilini oʻrgatishga oid yangi metodikalar ishlab chiqilib, bolalarda kommunikativ til koʻnikmalarini shakllantirish boʻyicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, til oʻqitishning zamonaviy strategiyalari – dramatizatsiya, rolli oʻyinlar, interfaol hikoyalash usullari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus oʻquv dasturlari va vositalari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodga chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish, ularning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini erta bosqichdan shakllantirish masalalari davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning intellektual va til ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy ta'lim standartlari asosida chet tillarini egallashga yo'naltirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun chet tilini, ayniqsa, ingliz tilini o'qitish metodikasi, pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar soni ortmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha

ta'lim muassasalarida bolalarning ogʻzaki nutqini shakllantirish, ularni til orqali oʻz fikrini erkin ifoda etishga oʻrgatish uchun zamonaviy oʻquv dasturlari va oʻquvmetodik materiallar yaratilmoqda. Jumladan, "Shuning uchun maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir" kabi Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlar bevosita maktabgacha ta'lim tizimini zamon talablari darajasida rivojlantirish, bolalarning chet tili koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida samarali tarzda rivojlantirishni ta'minlash uchun mustahkam ilmiy-metodik asos yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori, 2019-yil 8maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion gʻoyalar tizimini

\_

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2019. – B. 26.

shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv va pedagogik mahorat asosida oʻrgatish boʻyicha ish olib borgan yurtimizdagi pedagog olimlardan A.B.Rahmonov, E.Gʻoziyev, L.Xolmirzayeva, G.Abdukarimova, N.Davletova, U.A.Qosimov, Z.Gʻofurov, S.Qodirov, E.Yusupov, A.Erkayev, S.Shermuhamedov, J.Tulenov, T.Mahmudov, V.Karimova, F.Ismoilov, S.Ziyomuhammadova, U.Abduvahobov va boshqalar ingliz tilining psixologik, didaktik, amaliy, ta'limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib bir necha olimlar oʻz fikrlarini ifoda etishgan. I.V.Raxmanov, G.X.Bakieva, G.T.Maxkamova, F.R.Kadirova, V.S.Setlin, J.J.Jalolov, T.Q.Sattorov, Sh.Akbarova, D.R.Babayeva, Q.Shodiyeva, K.U.Najmiddinova, S.Mirjalilova, R.Toʻlaganova, V.M.Karimova, S.Gʻoziyeva, M.Berdiyeva va Oʻ.Abdullayeva³ kabi tadqiqotchilar tomonidan ogʻzaki nutqning madaniyatini shakllantirish jarayonining nazariymetodologik asoslari oʻrganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi doirasida E.I.Tixeva, E.A.Flerina, L.Verbiskaya, L.Vigoskiy, L.Volkova, V.Seliverstov, I.Romanova, I.Novichkova, A.Tambovseva, O.Safonova <sup>4</sup> kabi olimlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning ogʻzaki nutqining buzilishini aniqlash, nutq yetishmovchiligini toʻgʻrilash, soʻzni shakllantirish usullari, muloqotga kirishish va idrok etish texnikasini rivojlantirish boʻyicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

\_

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalarni chet tilga oʻrgatish nazariyasi va metodikasi. – T.: Sano-standart, 2009. – 213 b.; Babayeva D.R. Nutq oʻstish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. – 118 b.; Shodiyeva Q. Nutq oʻstirish uslubiyoti. Darslik. – Toshkent, 2008. – 192 b.; Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning oʻrni. – T.: Adolat, 2016. – 164 b.; Mirjalolova L.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning monologik nutqini oʻstirish. Uslubiy koʻrsatmalar. – T.: Toshkent shahar Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 2015. – B. 8-9; Mirjalilova S., Toʻlaganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. – T., 2008. – 199 b.; Karimova V.M., Akramova F.A., Hayitov. O.E., Lutfullayeva N.X. Psixologiya. Darslik. – T.: TDIU, 2006. – 57 b.; Goziyeva S., Ochilova D., Dolimova L. Bogʻchalarning katta guruhlari uchun. – T.: Оʻqituvchi, 1993. – 188 b.; Якиманская И.С. Построение модели личностно-ориентированного обучения / И.С.Якиманская. – М.: КСП+, 2001. – 128 с.; Abdullayeva Oʻ. Pedagogik texnologiya. – T., 2015. – 164 b.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Тихева Е.И. Развитие речи дошколника. – М.: Учпедгиз, 1948. – 154 с.; Флерина Е.А. Эстетическое воспитание дошколников. – М., 1961. – 334 с.; Вербиская Л.А. Давайте, говорит правилно. – М.: Высшая школа. 1993. – 144 с.; Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – СПб., 1997. – 91 с.; Волкова Л.С. Выявление и коррексия нарушений устной речи у слепых и слабовидящих детей. Учеб.-метод. пособие / Л.С.Волкова. – Л.: РГПУ: МГНПП Внедрение, 1991. – 44 с.; История логопедии. Под ред. В.И.Селиверстов. – М.: Владос, 2001. – 383 с.; Романова И.М. Особенности зрителного восприятия изображений слабовидящими детми и формирования приемов чтения иллюстрированих рисунков. Автореферат дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1 978. – 26 с.; Новичкова И.В. Коррексия недостатков развития речи у дошколников с косоглазием и амблиопией. Автореферат дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1997. – 14 с.; Тамбовсева А.Г. Формирование способов словообразования у детей дошколного возраста в деском саду. Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01 – Общая педагогика, история педагогики и образования. – М., 1983. – 199 с.; Сафонова О.В. Активизатсия речевой деятелности детей дошколного возраста с общим недоразвитием речи. Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.03 – коррексионная педагогика (логопедия). – М., 2007. – С. 171.

Xorij olimlaridan M.R.Lepper, S.Karen, J.Marileyn, M.Joanna, P.Laydia, S.Egli, D.Faulkner, L.Plouvman va S.Stephenlar<sup>5</sup> tomonidan raqamli texnologiya va boshqotirmalar, erta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ijodkorlik hamda maktabgacha ta'limda innovatsiyalarning oʻrni, ularning savodxonligini rivojlantirish tadqiq etilgan.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, ruhiy, aqliy va intellektual jihatdan har tomonlama salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalari darajasiga koʻtarilgan. Shu nuqtayi nazardan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ingliz tilida samarali ogʻzaki muloqot texnologiyasini rivojlantirishga oid ushbu tadqiqot ishi dolzarb sanaladi.

Tadqiqot dissertatsiya mavzusi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Oʻqituvchilar tayyorlash: ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishdan iborat.

# Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimiga doir o'quv qo'llanmalar, normativ-huquqiy hujjatlar, maktabgacha ta'limning ilmiy va nazariy asoslarini tahlil etish hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili og'zaki nutqni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida shakllantirishning pedagogik xususiyatlari hamda samarali omillarini aniqlash;

shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻqitish usullari va didaktik shart-sharoitlarini aniqlash hamda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvga asoslanib oʻqitish boʻyicha ingliz tili oʻquv dasturini ishlab chiqish asosida bolalarning ogʻzaki nutqini shakllantirish;

tanlangan texnikalar va metodlarning samaralilik, mantiqiylik, ijodiy va amaliy yoʻnalganlik imkoniyatlaridan foydalanish asosida ingliz tilini bilish darajalarini belgilovchi mezonlarning miqdoriy, sifatiy, natijaviy parametr va ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish indikatorlarini aniqlashtirish boʻyicha ilmiy-metodik

<sup>&</sup>lt;sup>5</sup> Lepper M.R. Dissonance, self-perception, and honesty in children // Journal of Personality and Social Psychology, 1973. – P. 65-74; Karen S., Alison B. An investigation into the effect of play-based instruction on the development of play skills and oral language // Journal of Yearly Childhood Research, 2016. Vol. 14 (4). – P. 389-406; Marilyn J.A. Technology for Developing Children's Language and Literacy: Bringing Speech-Recognition to the Classroom. Brown University. – New York: The Joan Ganz Cooney Center at Sesame Workshop, 2011. – 129 p.; Joanna M., Plowman L., Stephen C. Pre-school children creating and communicating with digital technologies in the home // British Journal of Educational Technology, 2012. Volume 44. Issue 3. – P. 23-26; Yeagle S. Learning in the early years: Social interactions around picture books, puzzles and digital technologies // Computers & Yeducation, 2012. – № 59 (1). – P. 38-49; Faulkner D., Coates Ye., Craft A. & Duffy B. Creativity and cultural innovation in yearly childhood education // International Journal of Yearly Years Yeducation, 2006. – № 14 (3). – P. 191-199; Plowman L., Stephen C. Children, play, and computers in preschool education // British Journal of Educational Technology, 2005. – № 36 (2). – P. 145-157; Plowman L., Stephen C., McPake J. Supporting young children's learning with technology at home and in preschool // Research Papers in Yeducation, 2010. – № 25 (1). – 93 p.

afzalliklarini dalillash hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqni shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishning samaradorligini aniqlash boʻyicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** maktabga tayyorlov guruhi bolalarida ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish jarayoni etib belgilandi.

**Tadqiqotning predmetini** maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishning mazmuni, shakllari, usul va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, tahlil, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

## Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning didaktik va metodik ta'minoti maktabgacha ta'limni tashkil etishning LMPA (lingvistik, psixologik hamda metodik adaptatsiya) mexanizmi asosida tayyorlov, motivatsion faollashtirish, baholash va adaptiv bloklarni tashkil etish hamda til oʻrganishning "autonomy" komponentiga ustuvorlik berish natijasiga koʻra takomillashtirilgan;

shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim jarayonini loyihalash va baholashning POLL (Personalized oral language learning) strategiyalar tizimi samaradorligi individual til rivojlanish profillarini ishlab chiqish asosida toʻrt bosqichli subyektlararo integratsiya, faoliyat izchilligi, motivatsion-emotsional muvofiqlik va muloqotga tayyorlik kabi psixolingvistik-pedagogik mezonlarga muvofiqlashtirish zaruriyatiga koʻra dalillangan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning toʻrt blokli maxsus modeli kontekstli muloqot, tinglash orqali soʻzni qabul qilish, takrorlash va soʻzlarni qayta uchratish, emotsional aloqadorlik kabi tabiiy til oʻzlashtirish elementlari doirasida bolalarning akademik-ijodiy, nutqiy-motivatsion harakat trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tinglash, tushunish va ifodalash topshiriqlarini zamonaviy oʻqitish usullariga adaptasiya qilish asosida ishlab chiqilgan;

ingliz tilida bolalarning ogʻzaki nutqini shakllantirish indikatorlarini aniqlashga qaratilgan EMI (English-speaking monitoring indicators) tizimining diagnostik imkoniyatlari baholovchi-konstruktiv usulni PBL, CLT, Montessori usuli va interfaol oʻyin texnologiyalarining ijodiylik, muammolilik va amaliy yoʻnaltirilganlik imkoniyatlari bilan gorizontal integrasiyalash orqali takomillashtirilgan.

# Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish maktabgacha pedagogikada zaruriyat ekanligi ilmiy-nazariy asoslangan;

"Ilk qadam" davlat oʻquv dasturi asosida davlat talablariga koʻra maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqi shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalari rivojlantirilgan hamda uni amaliyotda joriy qilish yuzasidan ilmiynazariy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida mahalliy va ingliz tajribalari asosidagi rivojini qiyosiy-tahliliy oʻrganilgani; tadqiqotning mazmuni va asosiy yoʻnalishlari nazariy jihatdan asoslangani; toʻplangan ma'lumotlarning ishonchliligi va ilmiyligi, amalga oshirilgan tadqiqot natijasida milliy pedagogika va zamonaviy uygʻunlik asosidagi ingliz tilining elementar metodik yondashuvlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlar, didaktik-pedagogik tavsiyalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda qoʻllaniluvchi ingliz tili materiallarining boyitilgani; maqsadga muvofiq tadqiqotning obyekti va predmeti belgilangani, vazifalari aniq qoʻyilgani; ilgari surilgan ilmiy gʻoyalar pedagogik tadqiqotlarga mos tarzda tashkil etilgani, tajriba-sinovdan oʻtkazilgani hamda ularning samaradorlik darajasi eksperimental tarzda tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlashni koʻzda tutuvchi ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishning mazmuni, ish turlari, shakllari va texnologiyalari milliy, ingliz tajribalarda ilgari surilgan nazariy qarashlar, huquqiy me'yorlarda koʻzda tutilgan vazifalar doirasida tadqiq etilganligi hamda davlat oʻquv dasturi talablari boʻyicha bolalar yosh xususiyatlari inobatga olingan integrativ mashgʻulotlar uchun "English for kids" oʻquv dasturi ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish va savodxonlik mashgʻulotlarini, ingliz tili oʻqituvchilari malakasini oshirish kurslari dasturlarini mazmunan boyitishga xizmat qilishi hamda pedagogik oliy ta'lim muassasalarining "Maktabgacha ta'limda ingliz tilini oʻqitish", "Maktabgacha pedagogika", "Bolalar nutqini oʻstirish", "Tabiat bilan tanishtirish", "Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika", "Maktabgacha ta'limni oʻqitish texnologiyalari va loyihalashtirish" kabi ixtisoslik modullari mazmunini takomillashtirishda foydalanilishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning didaktik va metodik ta'minoti maktabgacha ta'limni tashkil etishning LMPA (lingvistik, psixologik hamda metodik adaptatsiya) mexanizmi asosida tayyorlov, motivatsion faollashtirish, baholash va adaptiv bloklarni tashkil etish hamda til oʻrganishning "autonomy" komponentiga ustuvorlik berish natijasiga koʻra takomillashtirilganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Oʻzbekiston Yoshlar Ittifoqi markaziy kengashi faoliyatida foydalaniladigan (Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 17-fevraldagi 04-13/132-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari dasturlar, loyihalar va tadbirlarni pedagogik jihatdan boyitish hamda kengaytirish uchun xizmat qilgan;

shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim jarayonini loyihalash va baholashning POLL (Personalized oral language learning) strategiyalar tizimi samaradorligi individual til rivojlanish profillarini ishlab chiqish asosida toʻrt bosqichli subyektlararo integratsiya, faoliyat izchilligi, motivatsion-emotsional muvofiqlik va muloqotga tayyorlik kabi psixolingvistik-pedagogik mezonlarga muvofiqlashtirish zaruriyatiga koʻra dalillanganligi borasidagi mulohazalardan Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish, yoshlarning intellektual rivojlanishini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarini tashkil qilishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2022-yil 7-dekabrdagi 4/13-23-4207-son ma'lumotnomasi). Tadqiqotning asosiy gʻoya va xulosalari oʻquv-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning toʻrt blokli maxsus modeli kontekstli muloqot, tinglash orqali soʻzni qabul qilish, takrorlash va soʻzlarni qayta uchratish, emotsional aloqadorlik kabi tabiiy til oʻzlashtirish elementlari doirasida bolalarning akademik-ijodiy, nutqiy-motivatsion harakat trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tinglash, tushunish va ifodalash topshiriqlarini zamonaviy oʻqitish usullariga adaptasiya qilish asosida ishlab chiqilganligiga doir natijalaridan Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan AO-T-2021-419-sonli "Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Pre-school PDP)" mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetining 2023-yil 4-apreldagi 4/11-1779-son ma'lumotnomasi). Loyiha mazmuni bolalarning nutq koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik tavsiyalar bilan boyitilgan;

ingliz tilida bolalarning ogʻzaki nutqini shakllantirish indikatorlarini aniqlashga qaratilgan EMI (English-speaking monitoring indicators) tizimining diagnostik

imkoniyatlari baholovchi-konstruktiv usulni PBL, CLT, Montessori usuli va interfaol oʻyin texnologiyalarining ijodiylik, muammolilik va amaliy yoʻnaltirilganlik imkoniyatlari bilan gorizontal integrasiyalash orqali takomillashtirilganligiga oid ilmiy natijasi hamda oʻquv topshiriqlari "English for kids" nomli oʻquv dasturi mazmuniga singdirilgan (Toshkent tumani Maktabgacha va maktab ta'limi boʻlimining 2023-yil 14-noyabrdagi 01/4-1626-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning eshitish, gapirish koʻnikmalari takomillashtirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta Respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta "English for kids" oʻquv dasturi, 7 ta ilmiy maqola va 8 ta tezislar chop etilgan. Shundan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 sahifadan iborat.

#### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning I bobi "Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan. Ushbu bobning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish — pedagogik zarurat sifatida" nomli birinchi faslida maktabgacha ta'limga doir me'yoriy hujjatlar tahlili, Prezident qaror va farmonlari, darslik va oʻquv qoʻllanmalar hamda soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar haqida soʻz yuritiladi. Mamlakatimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat oʻquv dasturini amaliyotga tatbiq etish doirasida bolalarni maktabga tayyorlash uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida mashgʻulotlarni samarali tashkil etish zaruriy masaladir. Ushbu zaruriy masalani ijobiy hal etish uchun intellektual salohiyatga ega boʻlgan bolalarni rivojlantirish, shuningdek, ingliz tili mashgʻulotida ingliz tili oʻqituvchi bilan bolalar oʻzaro bir-birini tushuna olish, obyekt bilan subyekt oʻrtasidagi munosabatlarni toʻgʻri tashkil etish kabilar zamonaviy oʻqitishning asosiy talablaridandir.

"Xorijiy tilni o'rganish inson faoliyatining barcha sohalarida intellekt vositasi sifatida xizmat qiladi" degan fikr ogʻzaki nutqni rivojlantirish metodikasida muhim tamoyil hisoblanadi. Ingliz tilida ogʻzaki nutq – bu fikrni mazmunan toʻgʻri, erkin va muloqot sharoitiga mos holda ifoda eta olishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim oʻrin tutadi. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv orqali bolalarda motivatsion munosabatlar, ravon va aniq soʻzlash koʻnikmalari shakllanadi. Shunday ekan, ogʻzaki nutqda soʻzlardan oʻrinli foydalanishga oʻrgatish har bir ingliz tili oʻqituvchisining asosiy vazifasidir. Soʻzlarni oʻzlashtirgan shaxs murakkab aloqa va munosabatlar tizimini ham anglay oladi. Kishilar oʻrtasidagi muloqot ehtiyoji esa zaruriyatdan tugʻiladi. Shuning uchun ogʻzaki nutqga fanlar turli nuqtai nazardan yondashadi. Tadqiqotimizda biz bu jihatlariga pedagogik-psixologik e'tibor garatdik. psixologiyada ogʻzaki nutq birgalikdagi faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadigan koʻp qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayon nafaqat soʻzlar, balki harakatlar bilan ham ifodalanadi. Munosabatning kommunikativ jihati – axborot almashinuvi, idrok va tushunishni oʻz ichiga oladi. Demak, ogʻzaki nutq jarayoni kommunikativ (axborot uzatish), interfaol (oʻzaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (oʻzaro birgalikda) idrok etish orgali amalga oshiriladi.

Ogʻzaki nutq madaniyati tushunchasiga ilmiy yondashuv 1929-yilda Pragada bo'lib o'tgan ilmiy izlanishlarda ta'kidlangan bo'lsada, rivojlangan mamlakatlar: Germaniya, Angliya, Yaponiya va AQSh, Fransiya kabi davlatlarda alohida e'tibor qaratilgan. Ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, L.S.Vigoskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, A.V.Zaporojes va M.I.Lisinalarning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolaning dastlabki ehtiyojlaridan biri bu uning ogʻzaki nutqqa boʻlgan ehtiyojidir. Tadqiqotchi T.I.Gresikning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarga ogʻzaki dialogik shakli ijtimoiy jihatdan muhim 6 Dialogik shakli shaxs nutaning rivojlanishining ehtiyoji va qiziqishi, soʻzlashishi boʻlib xizmat qiladi. F.A.Soxin agar og'zaki nutq rivojlanmasa, bola to'laqonli rivojlana olmaydi, degan fikrga keladi<sup>7</sup>. Yuqorida keltirilgan ta'riflarga muvofiq og'zaki nutq tushunchasiga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: og'zaki nutq – kishilar o'rtasidagi nafaqat axborot almashish, balki uni shakllantirish, dalillash, soʻzlashish, aniqlashtirish rivojlantirish bilan bogʻliq oʻzaro ta'sir etish jarayoni hisoblanadi. Bolalar ogʻzaki nutqning grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar ularda ogʻzaki nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin<sup>8</sup>, V.I.Yadeshko<sup>9</sup>,

<sup>-</sup>

 $<sup>^{6}</sup>$  Грецик Т. Взаимодействие детского сада и семьи по развитию речи. Дошкольное воспитание, 2000. - №6. – С. 54-56.

 $<sup>^{7}</sup>$  Сохин Ф. А. Психолого-педагогические проблемы развития речи дошкольников. Вопросы психологии, 1989. - №3. – С. 21-24.

<sup>&</sup>lt;sup>8</sup> Сохин Ф. А. Koʻrsatilgan asar. – С. 21-24.

<sup>&</sup>lt;sup>9</sup> Ядешко В. И. У истоков вузовской подготовки специалистов дошколного воспитания (дела и люди). Дошколное образование: история, традиции, проблемы и перспективы развития. – М. 1997. – С. 78..

A.V.Zaxarova<sup>10</sup>, A.G.Tambovseva<sup>11</sup> va boshq.) tildagi soʻz hosil qilish tizimini aniqlash bilan birga grammatik xatoliklarni tadqiq etish, tuzatish va grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi. Nutqiy faoliyat nazariyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni tadqiq etish — maktabgacha ta'limda uning nazariyasi, amaliyoti uchun ahamiyatli hisoblanadi. Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalarda ogʻzaki nutqni rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi (Y.M.Strunina<sup>12</sup>, F.A.Soxin<sup>13</sup>, M.R.Lvov<sup>14</sup>, A.M.Borodich<sup>15</sup> va boshq.). Bolalarning lugʻat boyligini oshirish yoʻlida atrofmuhitni oʻrganish samarali natija beradi. Tajribali pedagoglarimiz tomonidan bolalarning lugʻat boyligini oshirish yoʻlida har xil usul va metodlardan foydalanilmoqda.

Bobning ikkinchi fasli "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutq faoliyatining pedagogik xususiyatlari va ularning tahlili" deb nomlanib, unda bolalarga ingliz tilini oʻrgatishning pedagogik xususiyatlarini oʻrganish, ingliz tili ogʻzaki nutq qobiliyatini shakllantirish, xorijiy tilni oʻrganishning ijobiy ta'sirlari hamda uning bolalardagi ijtimoiy-emotsional jarayonlarni rivojlantirishiga doir masalalar keltirilgan va keng tahlil etilgan.

"Quyida ingliz tilini oʻrgatishning eng muhim qismlaridan ba'zilari keltirilgan: bolaning umumiy va til rivojlanishiga taalluqli omillar: bolaning aqliy jarayonlarini, jumladan diqqatni (ixtiyoriy va ixtiyorsiz), xotirani, fikrlashni (vizual-majoziy va mantiqiy) toʻgʻri rivojlantirish hamda tasavvur (reproduktiv va ijodiy), shuningdek, shaxsning lingvistik, ijtimoiy, kognitiv, badiiy va hissiy qobiliyatlari; talabalarning ingliz tilida samarali muloqot qilish san'atiga oʻrgatish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarni egallash; tabiiy va xorijiy nutq oʻzaro ta'sirining xususiyatlari bilan tanishish; tili oʻrganilayotgan xalqning madaniyati va tarixini oʻrganish kabilar kiradi<sup>16</sup>.

<sup>&</sup>lt;sup>10</sup> Захарова А. В. Деятелностный подход к изучению самоотсенки. Психодиагностика и школа: Тезисы симпозиума. – Таллин, 1980, – С. 11-14. Захарова А. В. Когнитивные аспекты отсеночной деятелности школника. Психологические проблемы учебной деятелности школника / Под ред. Б.В. Давыдова. – М., 1977. – С. 270-273. 121.

<sup>&</sup>lt;sup>11</sup> Тамбовсева А. Г. Формирование способов словообразования у детей дошколного возраста в детском саду: диссертатсия ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 – Общая педагогика, история педагогики и образованияю Тамбовсева Алла Генриховна. – М., 1983. – С. 99.

<sup>&</sup>lt;sup>12</sup> Струнина Е. М., Ушакова О. С. Методика развития речи детей дошколного возраста: Учеб.-метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений. – М.: Гуманит. изд. сентр ВЛАДОС, 2004. – С. 88.

<sup>&</sup>lt;sup>13</sup> Сохин Ф. А. Психолого-педагогические основы развития речи дошколников. – М.: Изд-во Мое. Психолого - сотсиалного института, Воронеж: Изд-во НПО "МОДЕК", 2002. – С. 54.

<sup>&</sup>lt;sup>14</sup> Лвов М. Р. Методика развития речи младших школников. Пособие для учителя. – 2-е изд.., перераб. – М.: Просвещение, 1985. – С. 76.

 $<sup>^{15}</sup>$  Бородич А. М. Методика развития речи детей. – М.: Прочвещение, 1981. - C. 56.

<sup>&</sup>lt;sup>16</sup> David L. M.The Educational Contributions of Sir Thomas More, Journal of Thought. <u>Vol. 32, No. 2 (Summer 1997)</u>, Published By: Caddo Gap Press. – P. 25-36.

"Kommunikativ kompetensiya" – "til foydalanuvchisining madaniyat, an'analar, umumiy qoidalar va me'yorlar nuqtai nazaridan qanday, nima va qayerda toʻgʻri gapirish mahorati, bilimi va ijtimoiy kontekstda ijtimoiy ma'noni tushunish qobiliyati hisoblanadi"17. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon boʻlib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish, birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bogʻliqdir" 18. Oxirgi tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, ingliz tili ta'limining asosiy maqsadini aniqlash e'tiborga olish kerak boʻlgan muhim iarayonida eng omillardan tarbiyalanuvchilarning samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirishdir <sup>19</sup>. Ta'lim dasturlarining maqsadlarini koʻzdan kechirganimizda, ularning aksariyati lingvistik komponentlarni oʻzlashtirish va ularni boshqa odamlar bilan oʻzaro munosabatlarda amaliyotga tatbiq etish zarurati bilan bogʻliqligi aniqlandi. Oʻquv maqsadlarini belgilashda mavzuning bolaning intellektual, rivojlanish va bolaga g'amxo'rlik xususiyatlariga ta'siri hisobga olinadi. Shuni ham esda tutish lozimki, ikkinchi tilni oʻrgatish yoqlab yoki qarshi boʻlishi mumkin boʻlgan keng koʻlamli maqsadlarga ega.

Bobning "Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishning tamoyillari va tahlili" deb nomlangan uchinchi fasli shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va bolalarning oʻquv va ijtimoiy rivojlanishiga boʻlgan ta'sirini qiyosiy tahlil etish kabilarni oʻz ichiga oladi.

Protagor, Plutarx, Seneka, Aristotel, Platon va Sokrat kabi olimlar bolaning individualligiga qaratilgan ta'lim konsepsiyasiga asos solishgan. Miloddan avvalgi 427-547-yillarda yashagan Aflotun qadimgi davrlarda ta'lim falsafasining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Platon shaxsiy imkoniyatlarni hisobga olish uchun ta'lim dargohida "darsga chorlash erkinligi" saqlanishi kerak deb ishongan<sup>20</sup>.

"Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning asoschisi Carl Rogers oʻz-oʻzini hurmat qilishni eng muhim insoniy sifatlardan biri deb hisoblagan. Rogersning fikriga koʻra, bolaning oʻzini kimligini his qilish uning kattalar va boshqa bolalar bilan oʻzaro munosabatlarining bevosita natijasi sifatida rivojlanadi. Rogers odamlarning bir-biri bilan muloqot qilishini oʻz ichiga olgan koʻplab voqeliklarga, xususan, oʻqituvchi va tarbiyalanuvchilar oʻrtasidagi oʻzaro ta'sirlarga katta e'tibor qaratdi<sup>21</sup>. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq olimlarining

<sup>&</sup>lt;sup>17</sup> David L. Chiesa, Ph.D. (Ed.), Azizov U., Ph.D., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K., "RECONCEPTUALIZING LANGUAGE TEACHING: AN IN-SERVICE TEACHER EDUCATION COURSE IN UZBEKISTAN" oʻquv qoʻllanma. – Tashkent: Baktria Press, 2019. – P. 27.

<sup>&</sup>lt;sup>18</sup> Xudayarova X. "Bolalar nutqini oʻstirish nazariyasi va metodikasi" fanidan oʻquv uslubiy majmua. SamDu, 2021. – B. 16.

<sup>&</sup>lt;sup>19</sup> Альбуханова-Славская К. А. Деятельность и психология личности. – М.: Наука, 1980. С. 34.

<sup>&</sup>lt;sup>20</sup> Wenman M. <u>Agonistic Democracy</u>, Constituent Power in the Era of Globalisation. Cambridge University Press, 2013. – P. 97-260.

<sup>&</sup>lt;sup>21</sup> Cynthia V. "What Is Self-Concept in Psychology?" ThoughtCo, Dec. 6, 2021, thoughtco.com/self-concept-psychology-4176368.

asarlarida insonda bo'lishi kerak bo'lgan asosiy xususiyatlar bilan bir qatorda u ega boʻlishi lozim boʻlgan xususiyatlar majmui bayon etilgan. "Shaxs" tushunchasining U.A.Qosimov, Z.G'ofurov, E.G'oziyev, S.Qodirov, E.Yusupov, A.Erkayev, S.Shermuhamedov. J.Tulenov, T.Mahmudov, V.Karimova. F.Ismoilov. S.Ziyomuhammadova, U.Abduvahobov va boshqalar tomonidan alohida ta'kidlab oʻtgan koʻplab jihatlari qatorida uning falsafiy, tarixiy, psixologik, ma'naviy-axloqiy mazmuni, milliy-etnik va ijtimoiy-psixologik jihatlari ham bor. M.Quronov, Q.Yo'ldoshev, O.Musurmonova, Sh.N.Majitova, M.Ochilov, U.Mahkamov, S.Nishonova va boshqalar keyinchalik shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim faoliyati samaradorligini qanday kafolatlash mumkinligini oʻrgandilar. Ularning asarlari bizga koʻp narsalarni, jumladan, mustahkam oila, kuchli ta'lim muassasalari va umuman jamiyat uygʻunligi orqali insonni barkamol shaxs qilib shakllantirishni oʻrgatadi.

"Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv — bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga boʻlgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega boʻlgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning oʻziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida oʻzlarining rivojlanish yoʻllarini tanlash huquqini berishimiz kerak''<sup>22</sup>.

"Shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim modeli — bizning ta'lim tizimimizga tanish boʻlgan bolaga beriladigan an'anaviy ta'lim hamda intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarning bolalar bilan hamkorlik koʻnikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega boʻlishdir"<sup>23</sup>. "Maktabgacha ta'lim vazirligiga tegishli "Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish" metodik qoʻllanmasida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni asoslaydigan tamoyillar keltirilgan"<sup>24</sup>: "insonning toʻliq salohiyatga erishish, yoxud individuallik tamoyili; oʻzining oʻziga xosligini hurmat qilish va oʻzini namoyon etish tamoyili; subyektivlik tamoyili; erkin iroda yoki tanlov tamoyili, oʻziga xoslik va muvaffaqiyatga erishish tamoyili; ishonch va qoʻllab-quvvatlash tamoyili".

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini oʻrgatishda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning quyidagi tamoyillariga asoslandik (1-rasm):

<sup>&</sup>lt;sup>22</sup> Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasovova Y.N., Galimova E.F. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. YUNISEF metodik qoʻllanma, Toshkent-2020. – B.15-16.

<sup>&</sup>lt;sup>23</sup> Utemuratova D.J., "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondoshuvning asosiy tamoyillari", International scientific online conference: "Innovation in the modern education system" part 17, 25.04.2022. – P. 32-35.

<sup>&</sup>lt;sup>24</sup> Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasovova Y.N., Galimova E.F. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. YUNISEF metodik qoʻllanma, Toshkent-2020. – B. 15-16.

 ushbu tamoyilning asosiy maqsadi tegishli muhitni ta'minlash orqali bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam berishdir.

> oʻzining oʻziga xosligini hurmat qilish va oʻzini namoyon etish tamoyili

#### oʻziga xoslik va muvaffaqiyatga erishish tamoyili

individual va guruh shaklidagi ijodiy faoliyat orqali biz bolaning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz hamda rivojlantirishimiz mumkin. •bolaning ta'lim va tarbiyasining muvaffaqiyati tashqi ta'sirlar bilan emas, balki bolaning ichki motivatsiyasi bilan belgilanadi.

> ishonch va qoʻllabquvvatlash tamoyili

# 1-rasm. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning tamoyillari.

Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning asosiy maqsadi bolalar va oʻqituvchilarga oʻz-oʻzini anglash uchun mazmunli hamda ijtimoiy jihatdan maqbul strategiyalarni aniqlash va ishlab chiqishda yordam berish orqali oʻzlarining shaxs sifatida toʻliq potensialini roʻyobga chiqarishga yordam berishdir.

Dissertatsiyaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga metodik yoʻnaltirishning oʻquv-uslubiy shart-sharoitlari" nomli II bobida maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda poydevor boʻlib xizmat qiluvchi pedagogik texnikalar, metodlar keltirilgan va ular asosida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosidagi pedagogik-metodik model yaratilgan.


Bobning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda pedagogik texnikalarning qoʻllanilishi va metodik ta'minoti" deb nomlangan birinchi faslida tadqiqot davomida MTTlardagi olib borilgan ingliz tili oʻquv faoliyatlarida qoʻllanilgan hamda ingliz tili oʻqituvchilariga tavsiya etiladigan pedagogik texnikalarning mazmun va mohiyati misollar asosida keng yoritib berilgan.

"Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning maqsadi har bir bolaning oʻziga xos muammolarini hal qilishi, kimligini chuqurroq bilishga intilishi va ushbu yondashuvni qoʻllash natijasida bilimlarini namoyon eta bilishi uchun qulay muhit yaratishdir. Xususan, bolaning individual xususiyatlari — uning oʻz-oʻzini aks ettirish qobiliyati hamda oʻz xatolarini koʻrish va tuzatish irodasi — barcha mumkin boʻlgan uslubiy yondashuvlar aniq boʻladigan filtr vazifasini bajaradi. Bolalarga nafaqat

oʻquv yutuqlari, balki ularning xayrli ishlari, yengib oʻtgan qiyinchiliklari haqida ham aytish joizdir<sup>25</sup>.

L.Cameronning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini erta bosqichda oʻrgatish hozirgi global ta'lim muhitida nafaqat innovatsion yondashuv, balki zarurat sifatida qaralmoqda<sup>26</sup>. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi bolalarning yosh psixologiyasi, nutqiy rivojlanish darajasi, va metodik ta'minotning moslashuvchanligi bilan bevosita bogʻliq <sup>27</sup>. Shu boisdan, D.Gafurovaning nazariy qarashlaridan kelib chiqib, LMPA (Lingvistik, Metodik, Psixologik adaptatsiya) mexanizmi ushbu ehtiyojlarga mos, chuqur integratsiyalashgan, tizimli yondashuv sifatida taklif qilinmoqda<sup>28</sup>.

Ushbu mexanizm bolalarning ingliz tilidagi ogʻzaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, toʻrtta asosiy blok va autonomy komponenti asosida ishlanadi. Har bir blok alohida pedagogik vazifani bajaradi, lekin ular bir-biri bilan funksional jihatdan uzviy bogʻlangan.



#### 2-rasm. LMPA mexanizmi

"Pedagogik texnikalarga oid lingvistik tadqiqotlarni koʻrib chiqib, biz qanday qilib darslar sifatini oshirish va bolalarni yangi tilni oʻrganishga qiziqtirish boʻyicha

<sup>&</sup>lt;sup>25</sup> Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasovova Y.N., Galimova E.F. shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. YUNISEF metodik qoʻllanma, Toshkent-2020. – B. 15-16.


<sup>&</sup>lt;sup>26</sup> Cameron L. *Teaching Languages to Young Learners*. 2<sup>nd</sup> ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. Nazarova Z. *Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning zamonaviy uslublari*. – Toshkent: Iste'dod, 2022.

<sup>&</sup>lt;sup>27</sup> Moon J. Young Children and English: Theoretical Foundations. – Oxford: Macmillan Education, 2022.

<sup>&</sup>lt;sup>28</sup> Gafurova D. *Til oʻrganishda psixolingvistik yondashuvlar*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.

quyidagi xulosalarga keldik va shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning maqsad va tamoyillariga mos keluvchi pedagogik texnikalarni dissertatsiya ishimiz uchun tanlab oldik: Oʻyin texnikasi - odatda dars jarayonida bola oʻyinga yetarlicha jalb etilmasa, uning rivojlanishi sust boʻlishi mumkin. Ular nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar orasida eng sevimli mashgʻulot, balki maktab oʻquvchilari va hatto kattalarning ham aqliy salohiyatini qiziqarli va zavqli tarzda rivojlantirishning tabiiy usulidir" <sup>29</sup>. A.V.Zaporojes <sup>30</sup> va D.B.Elkoninning <sup>31</sup> soʻzlariga koʻra, oʻyin faoliyati kattalar tomonidan bolani oʻynashga oʻrgatadi va uni oʻyin harakatining ijtimoiy jihatdan oʻrnatilgan usullari bilan tanishtiradi.

Tadqiqotimiz davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tajriba-sinov ishlarini olib borishda foydalanilgan texnikalar quyida keltirib oʻtilgan(3-rasm):



# 3-rasm. Ingliz tilini oʻqitish texnikalari

Ilmiy tajribalar texnikasi — bolalarning tabiiy izlanuvchanligi va qiziquvchanligini rivojlantirish ularga oʻz atrofini oʻrganish va savollar berish uchun erkin boʻlgan oʻyin joylarini taqdim etish orqali ta'minlanishi mumkin<sup>32</sup>. Quyida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish mumkin boʻlgan ilmiy tajribalarga misol keltiramiz. Buning uchun, stol ustiga kattaroq hajmdagi idish qoʻyiladi va uning ichi suv bilan toʻldiriladi. Oʻqituvchi oldindan taxminiy 10 ta kichik hajmdagi jismlarni tayyorlab qoʻyadi va ularning ingliz tilidagi tarjimasini bolalarga oldingi darslarda oʻrgatgan boʻlishi lozim. Oʻqituvchi jism nomini aytadi, bolalar esa oʻsha narsani topib sink (choʻkadi) yoki float (yuzada turadi) soʻzi mos kelishini aytadi.

<sup>&</sup>lt;sup>29</sup> Sharapova C. А. Игровая позиция воспитателя как условие развития сюжетно-ролевой игри в старшем дошкольном возрасте. Современне научние технологии. 2013; 7: — С. 176-177.


<sup>&</sup>lt;sup>30</sup> Запорожец А.V., ед. Усова А.Р., Психология и педагогика игрйи дошколника: материалии симпозиума. ед.. – М., 1966. – С. 145.

 $<sup>^{31}</sup>$  Эльконин Д. В. "Игра, ее место и ролъ в жизни и развитии детей". Дошколъное воспитание, 2006. – С. 73–97.

<sup>32</sup> https://www.goodhousekeeping.com/life/parenting/g32176446/science-experiments-for-kids/

Bobning "Tarbiyalanuvchilarda ingliz tili ogʻzaki nutqini ijtimoiy-pedagogik jihatdan metodik shakllantirish" deb nomlangan ikkinchi faslida MTTlardagi ingliz tili oʻquv faoliyatini boshqarishda qoʻl keluvchi samarali metodlarning mazmun va mohiyati yoritib berilgan.

Bizningcha, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning maqsad va tamoyillaridan kelib chiqqan holda, har bir bolaga alohida e'tibor qaratilmogʻi lozim. Bu tilni oʻrgatish sohasida, xususan, oʻrganish uslublari matnida tez-tez takrorlanadigan bahsmunozaradir. Ingliz tili oʻqituvchilarining e'tiborni qaratgan oʻrganish uslublarining xilma-xilligi bolalarning hissiy jarayonlari bilan bogʻliq boʻlib, shu sababga koʻra oʻrganuvchilar toʻrt guruhga boʻlinadi<sup>33</sup>:



## 4-rasm. Til o'rganuvchilarining turlari.

Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida oʻqitish yaratishda quyidagi samarali va zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanganmiz: Maria Montessori, loyihaga asoslangan metod, hamkorlik ta'lim metodi, aqliy hujum metodi, soʻrovga asoslangan metod. Bobning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini metodik shakllantirishda "English for kids" oʻquv dasturi hamda modelning mazmuni" deb nomlangan uchinchi fasli tadqiqot uchun tanlab olingan pedagogik texnika va metodlar hamda boshqa komponentlarni oʻz ichiga olgan holda yaratilgan pedagogik-metodik modelning mazmun va mohiyati haqidadir. Pedagogik ilmiy izlanishlar jarayonida oʻrganilayotgan mavzuning asosini tashkil etuvchi va unga tirgak vazifasini bajaradigan jarayon tasviri pedagogik-metodik model deb ataladi. Pedagogika sohasida model muallif tomonidan ishlab chiqilgan va oʻrganilayotgan mavzuning elementlari hamda tarkibiy qismlarini oʻz ichiga olgan ta'limiy yaxlitlik deb ta'riflanadi. Tadqiqotimiz davomida biz maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarda ingliz tilidagi kommunikativ muloqotni shakllantirishning metodik modelini ishlab chiqdik (5-rasm).

<sup>&</sup>lt;sup>33</sup> Brown H.D. Principles of language learning and teaching. San Francisco State University. TESOL International Association, 2017. – P. 54-58.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan **Davlat talablari** 



"Ilk qadam" davlat oʻquv dasturi



"English for kids" ingliz tili oʻquv dasturi



Metodik modelning maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish




Vazifa: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili mashgʻulotlari sifatini oshirish va rivoilantirish

#### Ta'lim jarayonining tashkil etilishi

Ingliz tili oʻqituvchisi — **Subyekt** 

**Vazifalari:** ta'limiy hamkor, kuzatuvchi, baholovchi



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari – **Subyekt/obyekt** 

**Tutgan oʻrni:** asosiy ishtirokchi, mustaqil, izlanuvchi va erkin shaxs

Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar: konseptual, mazmuniy, tashkiliy, texnik va baholash

Modelning maqsadi va vazifalari

**Faoliyat turlari: 1.** oʻqituvchi-oʻquvchi interaksion faoliyat; **2.** oʻqituvchi-ota-onalar hamkorligi

"English for kids" dasturini amalga oshirish bosqichlari

Mashgʻulot faoliyatini tashkil etish usullari

Oʻqituvchilarning ota-onalar uchun rejalashtirgan **faoliyat turlari** 

Yondashuv: Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv.

**Metodlar:** Maria Montessori metodi, soʻrovga asoslangan metod, aqliy hujum metodi, loyihaga asoslangan metod, hamkorlik ta'lim metodi.

Pedagogik texnikalar: oʻyin texnikasi, viktorina, sinfdan tashqari ta'lim texnikasi, loyiha asosida oʻqitish texnikasi, dramatizatsiya, ilmiy tajribalar texnikasi, vizualizatsiya, animatsion videoga asoslangan oʻqitish texnikasi, dialog texnikasi, jigso pedagogik texnikasi.

Mashgʻulot jarayonidagi faoliyatlarni **nazorat qilish shakllari** 

Bolalarning **ijodiy faoliyatini** ragʻbatlantirish va amalga oshirishning **tarkibiy qismlari** 

Sinf xonasida ingliz tili muhitini yaratish usullari

**Natijalar:** - Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosiga qurilgan samarali ta'lim tizimi; oʻz-oʻzini ragʻbatlantiradigan, yangi gʻoyalarga ochiq, ingliz tili mashgʻulotlarida qatnashish erkinligiga ega va oʻz fikrini ifoda etishda oʻrgangan narsalaridan foydalana oladigan tarbiyalanuvchi.

## 5-rasm. Ingliz tili ogʻzaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodik model.


Mariya Montessori – italiyalik oʻqituvchi va shifokor boʻlib, XX asr boshlarida Montessori metodini ishlab chiqqan. Unga koʻra, bolalarning oʻziga xos ichki yoʻnalishi mavjud boʻlib, bu ularning oʻz-oʻzini boshqarish orqali rivojlanishiga xizmat qiladi. Montessori tizimida o'qituvchi – rahbar sifatida guruhni kuzatadi, o'rganishga to'siq bo'ladigan holatlarni bartaraf etishga harakat qiladi, ammo bolalarning rivojlanishiga bevosita aralashmaydi. Darslar esa, koʻpincha oʻquv xonasidagi o'yinchoqlardan qanday foydalanishni o'rgatish orqali olib boriladi. So'rovga asoslangan ta'lim (inquiry-based learning) esa, tarbiyalanuvchining ta'lim jarayonidagi faol roliga katta e'tibor qaratadi. Aqliy hujum bolalarni muammoga ijodiy yondashishga undaydi va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Loyihaga asoslangan ta'lim (Project-based learning) metodiga butun dunyo bo'ylab oʻqituvchilarning qiziqishi ortib bormoqda. Bolalar murakkab muammolarni hal qilish jarayonida chuqur fikrlay boshlaydi, bu esa tanqidiy fikrlash va mustahkam bilimlar shakllanishiga olib keladi. Bu metod mustaqil emas, balki savodxonlik, hisob-kitob, hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida qoʻllaniladi. PBL metodi bolalarda qiziqishni uygʻotish, real vositalardan foydalanish va yuqori sifatli muloqot orqali faol ishtirokni ragʻbatlantiradi. Tadqiqotchilarga koʻra, "loyiha usuli – bu bolalarga hayotiy va murakkab savollar berish, javob izlash orqali bilimga ega bo'lish usulidir". Hamkorlik ta'lim metodi esa kichik guruhlarda o'zaro manfaatli ishlashga undaydi. "Ushbu metod orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limda hamkorlikdan foydalanishning afzalliklari, uni amalga oshirish usullari va uning tarbiyalanuvchilar akademik rivojlanishiga doimiy ta'sirini ko'rib chiqishlari mumkin''<sup>34</sup>.

Tadqiqotda asosiy diqqat markazida oʻqitish jarayonini loyihalash va baholashda individual til rivojlanish profillariga asoslanish zaruriyati turadi. R.Ellisning qayd etishicha, til oʻzlashtirish har bir bola uchun oʻziga xos kechadi<sup>35</sup>. Bu farqlarni hisobga olmasdan amalga oshirilgan metodik yondashuvlar koʻpincha oʻrganishdagi qiyinchiliklar, qiziqishning yoʻqolishi va passivlikka olib keladi. Shu boisdan, shaxsiy rivojlanish trayektoriyalarini aniqlash asosida moslashtirilgan, strukturaviy va funksional jihatdan bir-biriga integratsiyalashgan POLL strategiyalar tizimi taklif qilinmoqda(6-rasm).

-

<sup>34</sup> https://www.ericdigests.org/pre-9211/cooperative.html

<sup>&</sup>lt;sup>35</sup> Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. 2<sup>nd</sup> ed. – Oxford: Oxford University Press, 2008.




6-rasm. POLL strategiyalar tizimi

Shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim modeli va POLL strategiyalar tizimi bolaning tabiiy til rivojlanish jarayoniga toʻlaqonli moslashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish bugungi tilshunoslik va pedagogika fanlari kesishmasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, 3–7 yosh oraligʻida boʻlgan bolalarning kognitiv va psixolingvistik xususiyatlari ularning nutqiy faoliyatini tarkibiy jihatdan oʻrganishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ogʻzaki nutqni shakllantirishga yoʻnaltirilgan toʻrt blokli maxsus model ishlab chiqildi.

Mazkur model kontekstli muloqot, tinglab tushunish, takrorlash, leksik birliklarni qayta uchratish va ularni emotsional kontekstda qayta ishlash kabi tabiiy til oʻzlashtirish mexanizmlariga asoslanadi. L.Vgotskiyning tadqiqotlariga koʻra, ushbu komponentlar til oʻrganishning evolyutsion asoslari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, ularni amaliy topshiriqlar orqali shakllantirish imkonini beradi(7-rasm)<sup>36</sup>.



7-rasm. Shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim modeli

<sup>&</sup>lt;sup>36</sup> Vygotsky, L. S. (2019). Thought and Language. Revised edition. Cambridge, MA: MIT Press.

Tadqiqotimizning "Bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarining samaradorligi" deb nomlangan uchinchi bobi ikki fasldan iborat. Ushbu bobning "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni" deb nomlangan birinchi faslida MTTlardagi ingliz tili oʻquv faoliyatida foydalanish mumkin boʻlgan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan hamda mashqlar asosida oʻquv rejasi berilgan.

Hamkorlikda ishlab chiqilgan "English for kids" dasturimizdagi mashgʻulotlarning 80 % qismi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda oʻyin tarzida tuzib chiqilgan. Dastur asosida yil yakunida bolalar quyidagilar haqida ingliz tilida elementar darajada soʻzlab bera olishlari lozim: "Oʻzimni tanishtirsam...", "Mening oilam", "Men xohlayman", "Men ... tugʻilganman", "Doʻstimning tugʻilgan kuni", "Men o'ynashni sevaman", "Bu qanday rangda?", "Mening sevimli mashgʻulotim", "Kunlik mashgʻulotlarim" kabilar. Har bir mashgʻulotda 5-8 tagacha so'z o'rgatish mumkin. So'zlarning miqdori mashg'ulotning qiyinlik darajasi va bolalarga oldingi oʻquv yilida oʻtilgan ekanligini ham hisobga olgan holda tuzilgan. Bu bir oyda bolalar 30 dan ziyod faol va 20 dan ziyod nofaol leksik birliklarni egallaydilar. Bu oʻrtacha hisobda yillik 270 dan ziyod faol va 180 dan ziyod nofaol leksik birlikka to'g'ri keladi. Bundan tashqari, bolalar 10 dan ziyod she'r va qo'shiqlar yod olishadi, hamda 10 ga yaqin sahna koʻrinishida ishtirok etishadi.

Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini oʻrgatish boʻyicha zamonimizning kuchli mutaxassislaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi I.V.Vronskaya oʻzining "Ingliz tilini erta yoshdan oʻqitish metodikasi" asarida bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda quyidagi bosqichlar va mashqlar tizimiga tayanishini aytib oʻtgan hamda biz ham ushbu nazariyaga asoslangan holda oʻz mashqlar tizimimizni ishlab chiqdik".

Ingliz tili nutqini shakllantirishda mashqlar tizimi

1-jadval.

Kommunikativ ta'lim maqsadini amalga	Nutq koʻnikmalarini rivojlantirish uchun
oshirish bosqichlari	mashqlar tizimi
1. Taxminiy-tayyorgarlik bosqichi	Tayyorgarlik mashqlari:
	<ul><li>fonetik va leksiko-grammatik;</li></ul>
	- taqlid qilish mashqlari (immitativ);
	– takrorlash, qaytarish (reproduktiv).
2. Stereotiplash-vaziyat bosqichi	Shartli nutq mashqlari:
	– almashtirish;
	<ul><li>kengaytirish;</li></ul>
	- oʻzgartirish;
	– kombinasiya;
	– savol-javoblar.
3. Oʻzgaruvchan-vaziyat bosqichi	Nutq mashqlari – leksik va grammatik
	materialdan yangi, ammo oʻxshash vaziyatlarda
	foydalanishni ta'minlaydigan vaziyatlar.

III bobning "Tajriba-sinov ishlarini yakuni va samaradorlik ko'rsatkichlari" deb nomlangan fasli tadqiqotimiz davomida olib borilgan ishlarning yakuniy, ya'ni MTTlardagi samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga hamda oʻqituvchilariga metodik tavsiyalar berishga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarimizni olib borish uchun, biz, Toshkent shahar Olmazor tumani "Jiydali" mahallasi 509-sonli DMTT (Tajriba va nazorat guruhlari-1, T-35 ta va N-35 ta tarbiyalanuvchi), Xorazm viloyati Gurlan tumani "Yangibog'" mahallasi Ziroatchilar ko'chasi 8-sonli DMTT (Tajriba va nazorat guruhlari-2, T-24 ta va N-24 ta tarbiyalanuvchi) hamda Buxoro viloyati Buxoro tumani "Robotipoyon" mahallasi 18-sonli DMTTni (Tajriba va nazorat guruhlari-3, T-30 ta va N-29 ta tarbiyalanuvchi) tanladik. Tajriba-sinov ishlarini olib borishda har bir bogʻchadan bitta amaliyotchi oʻqituvchi tayinlandi va umumiy 177 nafar (T-89 ta, N-88 ta) tarbiyalanuvchilar ishtirok etishdi. Har bir tarbiyalanuvchining ota yoki onasi ingliz tili o'qituvchisi bilan hamkorlikda ish olib borishdi. Demak, tajribada 3 ta oʻqituvchi, 177 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etishdi.

Vazifalarni hal qilish uchun bir qator tadqiqot metodlari qoʻllanildi: nazariy (tadqiqot mavzusi boʻyicha normativ, psixologik, pedagogik, lingvistik va oʻquv adabiyotlarini tahlil qilish, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik jarayonni kuzatish, oʻrganish natijalarini nazariy umumlashtirish); empirik (kuzatish, suhbat, savol-javob, pedagogik eksperiment, shu jumladan, aniqlash, shakllantirish va nazorat qilish bosqichlari); matematik statistika usullari (tajriba natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish). Tajriba ishlarimiz uch bosqichda amalga oshirildi: 1 – aniqlash, izlanish va tahliliy bosqich; 2 – eksperimental tekshirish, yoxud shakllantirish bosqich; 3 – yakuniy, nazorat va umumlashtiruvchi (natijalarni tahlil qilish) bosqich. Ilk bosqichda qilingan asosiy ishlardan biri bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish darajasini baholash mezonlari va koʻrsatkichlarini aniqlab chiqdik. Quyidagi mezonlarga tayangan holda bolalardagi boshlangʻich ingliz tili ogʻzaki nutqini baholadik: 1. Ingliz tilini bilish va qoʻllay olish mezoni. 2. Ingliz tili muloqotida ishtirok etish mezoni. 3. Ingliz tili muloqotini shakllantirishning hissiy ta'sir mezoni.

Baholash jarayonida yuqoridagi mezonlar asosida koʻrsatkichlarni uch darajaga boʻlib oldik, ya'ni yuqori, oʻrta va quyi daraja. Kuzatuvimiz natijasida shuni aniqladikki, yuqori darajadagi ingliz tili ogʻzaki nutqi rivojlangan tarbiyalanuvchilar mavjud emas, chunki ingliz tili oʻqituvchilari an'anaviy yondashuvdan foydalangan holda faqatgina lugʻatlarni (qisman grammatika) yodlatishga e'tibor berishgan. Oʻrta darajadagi tarbiyalanuvchilar soni (66 nafar) umumiy 37 %ni koʻrsatdi, quyi darajadagilari esa sal kam 63 %ni (111 nafar) tashkil etdi. Ammo yuqori darajadagi bolalar kuzatuvimiz davomida aniqlanmadi.

2-jadval.

Tajriba guruhlari va nazorat guruhlaridagi ingliz tili ogʻzaki nutqni shakllantirish darajasi natijalarining umumlashtirilgan jadvali:

	Tarbiyala- nuvchilar soni	Tajriba-sinov boshida				Tajriba-sinov yakunida							
MTTlar	Tajriba guruhi Nazorat guruhi	T Yuqori daraja		L Oʻrta daraja		L Quyi daraja X		L Vuqori daraja		L Oʻrta daraja		L Quyi daraja	
Toshkent shahar 509-DMTT	35	2	1	15	14	18	20	12	2	16	17	7	16
Buxoro viloyati	35	1	1	15	13	14	15	10	3	17	13	3	13
18-DMTT  Xorazm viloyati 8-DMTT	29 24 24	1	1	8	10	15	13	8	2	12	10	4	12
Jami	89 88	4	3	3 8	3 7	47	4 8	3	7	45	4 0	1 4	4
% da	89 %	4	3	43	42	53	54	34	8	50	45	16	47

Oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlari quyidagi natijalarni berdi: tajriba va nazorat guruhida tarbiyalanuvchilarning oʻrtacha oʻzlashtirishi (73-58) % = 15 %ga oshgan. Bu esa, oʻz navbatida,  $\frac{73\%}{58\%}$  = 1,26 barobar ortiq ekanligini anglatadi. Bunda, ya'ni tajribadan keyin samaradorlikka erishilgan. Unga koʻra tanlab olingan metodlar quyidagi jadvalga ega boʻlamiz.

3-jadval.

Metodlarning samaradorlik koʻrsatkichlari dinamikasi

	Natijaviy koʻrsatkich	Styudent funksiyasi taqsimot jadvalidan qiymatdorlik darajasi
Maria Montessori	63 %	1,94
Soʻrovga asoslangan metod	73,3 %	1,94
Aqliy hujum metodi	70 %	1,94
Loyihaga asoslangan metod	72 %	1,94

Hamkorlikda ta'lim metodi	71 %	1,94

Oʻtkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, dissertatsiya ishimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishga oʻz hissasini qoʻshdi.

#### **XULOSA**

"Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida shakllantirish" mavzusi boʻyicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv muhim omil boʻlib, bolalarning individual xususiyatlariga mos ta'lim metodlarini qoʻllash samarali natijalar berdi. Tadqiqot natijalariga koʻra, bolalarning xorijiy tildagi nutqiy idrokini shakllantirishda aniq talaffuz va ifodali nutq ustuvor tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish juda muhim ekanligi koʻrsatib berilgan.
- 2. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "English for kids" oʻquv dasturi bolalarning ingliz tilini oʻrganishida ogʻzaki nutqni shakllantirishda muhim oʻrin tutib, oʻquv jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon berdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda pedagogik va psixologik omillarni hisobga olish, ta'lim jarayonining natijadorligini oshirdi.
- 3. Interfaol oʻyin texnikalaridan foydalanish bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishda ijodiy va motivatsion yondashuvlarni qoʻllash orqali samarador natijalarni ta'minladi. Sinfdan tashqari ta'lim texnikalari (Flipped-classroom) bolalarning mustaqil oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishga, ularning ogʻzaki nutqini shakllantirishga katta yordam berdi.
- 4. Loyihaviy ta'lim texnikalari orqali bolalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirishga xizmat qildi. Hamkorlikda oʻqitish metodlari bolalarning xorijiy tilda nutqiy shakllanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatgan, ayniqsa guruh boʻlib ishlashda kommunikativ koʻnikmalarni mustahkamlashga yordam berdi.
- 5. Bolalar orasida ingliz tilini tinglab tushunish koʻnikmalarini shakllantirish orqali ogʻzaki nutqni shakllantirishda muhim qadamlar qoʻyildi. Zamonaviy oʻqitish metodlariga asoslangan topshiriqlar orqali bolalarning ogʻzaki nutqi hamda nutqiy muloqotga boʻlgan ehtiyoj shakllantirilgan.
- 6. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida bolalarda ingliz tili lugʻat zaxirasi shakllantirilgan va bu ularning kelajakdagi nutqiy shakllanishiga asos boʻlgan. Ta'lim jarayonida sifat va miqdor mutanosibligi qoʻllanilib, bolalarning ingliz tilini bilish darajasi aniq parametrlarga asoslanib oʻlchandi.
- 7. "Ingliz tili va nutq" markazlarida bolalarning ijodiy hamda akademik harakatlarini shakllantirish orqali motivatsion yondashuvning natijalari ko'rsatilgan.

Innovatsion texnikalarning pedagogik afzalliklari orqali ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish indikatorlari aniq belgilangan va ilmiy jihatdan dalillangan.

- 8. Ingliz tilida ogʻzaki nutqni shakllantirish boʻyicha ishlab chiqilgan didaktik tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan va oʻquv jarayonini takomillashtirgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili ogʻzaki nutqini shakllantirish pedagogik zarurat ekanligi isbotlandi.
- 9. Bolalarda ingliz tili ogʻzaki nutq kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning ahamiyati aniqlandi. Innovatsion pedagogik texnikalarni qoʻllash boʻyicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tatbiq etilgan va ularning samaradorligi kuzatildi.
- 10. Tajriba-sinov ishlari orqali olingan natijalar ilmiy jihatdan tahlil qilindi va bolalar nutqini rivojlantirishda samaradorligi koʻrsatildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari mahalliy hamda xalqaro pedagogik tajribalarga asoslanib, ilmiy jihatdan dalillandi va ta'lim tizimiga joriy etildi.

# НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/07.06.2024Ped.27.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

#### СУБХОНОВА АНОРА АКМАЛ КИЗИ

# ФОРМИРОВАНИЕ УСТНОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

Автореферат Диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.3.PhD/Ped5141

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Hayчного Coвета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	<b>Ирискулов Мухамадавас Турсунович,</b> кандидат филологических наук, профессор					
Официальные оппоненты:	Сабирова Гулноза Садиковна доктор педагогических наук, доцент					
	Акбарова Шахноза Хикматиллаевна доктор философских наук по педагогике (PhD), доцент					
Ведущая организация: Чирчикся	кий государственный педагогический университет					
РhD.03/07.06.2024Ped.27.02 по присуждению у университете мировых языков (Адрес: 100138, кольцевая дорога, дом 21-А. Тел. (+ 998 71 uzswlu_info@mail.ru).  С диссертацией можно ознакомиться государственного университета мировых языков						

Л.Т. Ахмедова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

А.Б. Рахмонов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, доцент

#### К.Ш. Мурадкасимова

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, доцент

#### ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в научноисследовательских работах, проводимых по методике преподавания и освоения иностранных языков, в частности английского языка, вопрос формирования иноязычной компетенции детей дошкольного возраста признается одной из актуальных тем. Особое внимание уделяется развитию устной речи детей, подготовке их к свободному общению и применению в этом процессе личностноориентированного подхода. В настоящее время начало изучения языка на раннем этапе в системе дошкольного образования, проводимое на основе личностноиндивидуальных способностей ориентированных методов с учетом потребностей, значительно повышает эффективность образования. формировании навыков устной речи посредством игровых интерактивных занятий, мультимедийных средств и коммуникативных подходов усиливается интерес детей к языку. Исследования, проводимые в мире, подчеркивают необходимость не ограничиваться традиционными подходами к обучению английскому языку, а разрабатывать методы, соответствующие возрасту детей, ориентированные на мотивацию и способствующие личностному развитию.

В мировых исследованиях актуальной проблемой считается подбор языкового материала, соответствующего возрастным особенностям детей дошкольного возраста, а также использование личностно-ориентированных, интерактивных и коммуникативных методов в формировании их навыков устной речи при обучении иностранным языкам. При формировании у детей навыков свободного общения на английском языке особое внимание уделяется развитию навыков устного выражения посредством игровых заданий на основе индивидуального подхода, визуальных материалов, мультимедийных средств, песен и стихов. В связи с этим на международном уровне, в частности, в таких престижных учебных заведениях, как Мельбурнский университет в Австралии, Хельсинкский университет в Финляндии и Лейпцигский университет в Германии, разрабатываются новые методики преподавания английского языка в образовании, проводятся эффективные дошкольном исследования формированию коммуникативных языковых навыков у детей. Кроме того, разрабатываются специальные учебные программы и средства для детей дошкольного возраста на основе современных стратегий обучения языку драматизации, ролевых игр, интерактивных методов повествования.

В нашей стране обучение молодого поколения иностранным языкам, в частности английскому, формирование их лингвистической и коммуникативной компетенции с раннего возраста в системе дошкольного образования признано одним из приоритетных направлений государственной образовательной политики. В частности, в Республике Узбекистан принимаются важные меры по совершенствованию системы дошкольного образования, развитию интеллектуальных и языковых навыков детей, их ориентации на овладение

иностранными языками на основе современных образовательных стандартов. В последние годы растет количество научных исследований, основанных на преподавания иностранного языка, особенно английского. методике педагогических подходах и инновационных технологиях для детей дошкольного возраста. В нашей стране разрабатываются современные учебные программы и учебно-методические материалы для формирования устной речи детей в обучения образовательных учреждениях, выражению своих мыслей посредством языка. В частности, высказанные Президентом слова: «Поэтому реализация таких масштабных реформ в сфере дошкольного образования является для нас и долгом, и обязанностью» <sup>37</sup>, непосредственно способствуют развитию системы дошкольного образования на уровне современных требований, формированию у детей навыков владения иностранным языком. Это, в свою очередь, создает прочную обеспечения эффективного методическую основу для развития английской речи у детей дошкольного возраста на основе личностноориентированного подхода.

Актуальность исследования заключается формировании устной английской речи у детей дошкольного возраста на основе личностноориентированного внедрении подхода, активном методики обучения английскому языку в сферу дошкольного образования педагогических вузов и необходимости освещения наиболее эффективных форм и методов развития личности детей как достойных граждан современного поликультурного общества, основанного на личностно-ориентированном подходе. Целесообразно исследовать социально-педагогические факторы, дидактические принципы умственного, психического, физического развития детей в дошкольном современном контексте. В частности, важное значение приобретает формирование устной английской речи у детей дошкольного возраста на основе личностно-ориентированного подхода, совершенствование дидактического обеспечения и информационной среды подготовки их к школьному обучению. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан от 16 декабря 2019 года №3РУ-595 «О дошкольном образовании и воспитании», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2017 года №ПП-3305 «Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 5 апреля 2018 года №ПП-3651 «О мерах по дальнейшему стимулированию развитию дошкольного образования», И системы Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2018 года №ПП-3955 «О мерах по совершенствованию управления системой дошкольного образования», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019

\_

<sup>&</sup>lt;sup>37</sup> Мирзиёев Ш.М. Согласие нашего народа - высшая оценка нашей деятельности. Том 2. - Ташкент: «Узбекистан», 2019. - С. 26.

года №ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2023 года №УП-79 «О мерах по эффективной организации деятельности Министерства дошкольного и школьного образования и организаций в его системе», Указе Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2024 года №УП-152 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества И эффективности дошкольного образования», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13 мая 2019 года №391 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности организаций дошкольного образования», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 декабря 2022 года №802 «Об утверждении Государственного стандарта дошкольного образования и воспитания», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике — «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социально-правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

